

MUSIQA VA SHE`RIYAT O`RTASIDAGI ALOQADORLIK

Bekpolatova Altinay Kuandikovna

O`zbekiston Davlat san`at va madaniyat instituti, Nukus filiali o`qituvchisi

Bayxojaev Aydos

O`zbekiston Davlat san`at va madaniyat instituti, Nukus filiali 2 kurs talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so`zlar:

Madaniyat, bayramlar, san`at, musiqa, maqom, risola, tpdbir-rejalar

Annotatsiya:

Respublikamizda bayramlarni tashkil etishga bo`lgan e`tibor judayam kuchaydi. Bayramlar madaniy tadbirlarning asosiy bo`laklaridan biri sifatida yurtimizning barcha xonadonlarigacha kirib bormoqda. Madaniyat muassasalari va san`at maskanlarida, umuman, san`at yoki madaniyat sohasiga tegishli bo`lmagan tashkilotlarda ham bayramlarni yuqori saviyada tashkil etishga katta e`tibor berilmoqda.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Me`morchilik muqaddas so`z miniatyura san`ati, naqsh, kabi musiqa ham Qur`oni Karim tamoyillaridan kelib chiqadi. Islomda musiqa ilohiy kashfiyot sifatida talqin qilinadi va uni o`zgartirish huquqi kam odamlargagina nasib qilgan. Fazoviy tartib-qoidalar va maqomlarning musiqiy tuzilishi chetga chiqishga yo`l qo`ymaydi. XVI asrda bitilgan «Musiqa haqidagi risola»da shunday deyilgan: «Avval boshida maqomlar ettita edi, ular yetti payg`ambardan meros bo`lib qolgan. Rost — Odam Atodan, Hijoz — Ibrohimdan, Rahoviy — Ismoilidan, Ushshoq — Yoqubdan, Iroq — Yusufdan, Ko`cha — Yunusdan, Husayniy — Dovud payg`ambardan qolgan». [1.45]

Islomda musiqa fazoning bosqichli tuzilishi va uyg`unlik-tartiblilik tamoyiliga qattiq tayanadi. Fazodan musiqaga ko`chgan uyg`unlik va bosqichma-bosqichlilik cheksiz go`zallikning manbaidir. Arab faylasufi Al-Kindiy shunday degan edi: «... uyg`unlik hamma narsadan o`rin olgan, u hammadan ko`ra ohang — ovozlarda, olamning tuzilishi musiqa va insonlar qalbida yaqqolroq namoyon bo`ladi». Bu fikrni tasdiqlovchi dalillar ko`p. Bu haqda XV asr musiqashunosi Mavlono Najmiddin Kavkabiy «Musiqa haqida risola»sida shunday yozadi: «Ayrim maqomlarni ijro etish uchun muvofiq keluvchi vaqtni tanlash kerak. Rahoviy maqomini quyosh chiqishi oldidan, Ushshoqni quyosh chiqib bo`lgach, Rostni choshgoh arafasida, Iroqni choshgoh paytida, Buzrukni quyosh botishi paytida, Busaliqni digar nomozi vaqtida, Zangulani quyosh botishi oldidan, Navoni nomozshom paytida, Zirafkani uyquga yotish oldidan, Isfaxonni tunda ijro etish kerak». [2.90-91]

Islomda oqillik ifodachisi So`z — Kalom zohiriy va botiniy qudratga ega. Musiqa maqom ana shu Kalomni yanada tiniqlashtiradi — aqlni peshlaydi. Fikr va so`z etuklikka erishgach, ular musiqiy qiyofada chinakam uyg`unlik hosil qiladi, iloxiy takomilashadi. Olamning uyg`unligi mo``jizadir. Umar Xayyom odam uyg`unligini shunday tavsiflaydi: «Yaxlit tartib muvozanat bilan shartlanur, uning tufayli muvozanat yashnar». Zero, islom estetikasida Olamning uyg`unligi Alloh zeb bergan

go`zalliklar negizidir...” Musiqa esa – Iloxiy kashfiyotdir.[3.79]

Shu kunga qadar xalqning sevikli kuylari bo`lib kelayotgan Shashmaqom – olti mahom duvozda – o`n ikki maqom zaminida shakllanib bordi. Shashmaqom olti turkumdagi maqomlarni o`z ichiga oladi. Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq. Bu maqomlardan har biri uch butoqdan tashkil topadi:

1. **Mushkilot.** Mushkilot faqat cholg`u asboblari bilangina ijro etiladi;
2. **Nasr.** Nasr cholg`u va ashula bilan ijro etiladi;
3. **Ufor.** Ufor *cholg`u, ashula va o`yin bilan ijro etiladi. Butoqlarning har biri yana bir necha kuyni o`z ichiga oladi.*

Masalan, Buzruk maqomining Mushkiloti Tasnif, Tarji`, Gardun, Muhammas, Muhammasi Nasrullohi, Saqiyli Salimiy va Saqiyli Sulton kuylarini, shu maqomning Nasri Sarahbor, bir necha Tarona, Talqini Uzol, Nasrullohi Nasri Uzol, Siporish, jami 15 kuyni o`z ichiga oladi. Yoki Navo maqomining Mushkiloti Tasnif Tarji`, Gardun, Nag`ma, Muhammasi Navo, Muhammasi Bayot, Muhammasi Husayniy va Saqiyli kuylarini, Nasri yana 15 kuyni o`z ichiga oladi va hokazo. Bundan tashqari, SHashmaqomning butun maqomlar turkumi bilan emas, balki alohida ijro etiladigan sho`bachalari ham bor.

Masalan: Buzruk maqomi Savt sarvari (Talqin, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufor), Mo`g`ulcha (Talqini Ufor), Dutor Iroqi (Talqin, Tushirma, Ufor, Beboqcha), Dilxiroj (Talqin, Qashqarcha, Ufor) va Rok (tushirmasi) sho`bachalarini; Navo maqomi Savti Navo (Talqin, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufor), Navo mo`g`ulchasi (Talqin, Ufor), Karimqulbek mo`g`ulchasi (Talqin, Nimcho`poni yana Talqin, Ufor) va Navo Mustazodi (Talqin va Ufor) sho`bachalarini o`z ichiga oladi va hokazo. Shashmaqom kuylarini ijro etishda 24 usul bor. Masalan, Saraxbor — bumbak, bumbak; Tasnif — bakka bum bumbak — bum; Gardun — bakka-bakka baka bumbak; Ufor — bum-bum bak bumbak va boshqalar. Bu usul vositasi bilan mashshoqlar va hofizlar shogirdlariga ta`lim berganlar, kuylar yozuv bilan aks ettirilgan. SHashmaqom turkumlaridagi kuylar.

Tanbur, chang, qonun, ud, barbat, rubob, qo`buz, ro`d, g`ijjak, shamoma (musiqor), chag`ona, kungura, arg`unun (hozirgi organ cholg`u asbobi shundan olingan) kabi asosiy cholg`u asboblari ijro etilgan. Bu cholg`u asboblari malakali ustalar tomonidan yasalgan, ustalar ko`pincha tut yog`ochini ishlatganlar, torni ipakdan qilganlar, cholg`u asboblari ornament, qimmatbaho tosh va boshqalar bilan chiroyli qilib bezanganlar.

Xullas fan va madaniyat shaydosi, homiysi bo`lgan temuriyzoda hukmdor Husayn Boyqaro va uning o`ng qo`l amiri bo`lgan Navoiy davrida Hirot shoir va fuzalolar, san`atkorlar maskaniga aylangan edi.

O`rta asrlar boshida Forobiy, Ibn Sino va boshqalar umuman musiqaning kishi hulqiga ta`siri to`g`risida gapirgan bo`lsalar, Jomiy musiqaning - maqomning tarbiyaviy aqamiyati ustida to`xtaladi: «Bilki, kishiga lazzat baxsh etishdan iborat umumiy xususiyatdan tashqari... o`n ikki maqomdan har biri, har bir ovoz va sho`ba maxsus ta`sir kuchiga ega. Ushshoq va navo insonda qudrat hamda jasurlik uyg`otadi, vaholanki, ovoz bunday ta`sir kuchiga ega emas. SHO`balar orasida savtu navo ruhga shunday ta`sir etadi». Musiqaning tarbiyaviy ahamiyatiga oid bunday fikr-mulohazalar o`z davri uchun yangilik edi.

Jomiy «Risolayi musiqiy» asarida musiqaning nazariyasi, uning turlari, ijro usullari, bahrlari va sozlar haqida keng ma`lumot berib, musiqaning taraqqiyot davrlari xususida ham to`xtaladi. Masalan, turkiy davrni shunday izohlaydi: «Turkiy davri. To`rtta turi bor.

- **Birinchi** — asli (o`zagi) yangi turkiy. U yigirma niqradan iborat. Alfozi (ya`ni ruknlari) ikki sababi Hafiyf (tan) orasida to`rt fosila (tananan): tan tananan tananan tananan tananan tan — mufta`ilun mutafoilun foilotun vaznida.[4.51-52]

- **Ikkinchisi** — asli qadim turkiy. Yigirma to`rt niqra. Alfozi — asli yangi turkiy alfozining oxirgi bir fosila (tananan) orttirilgan...
- **Uchinchisi** — turkiy o`zi qoladi. Hafiyf (engil) o`n ikki niqra: tan tan tanan tanan — fa`lun foilun vaznida. Uning uchta zarbi bor, birinchi sabab — i hafiyf (tan)ning «t» sida va ikki fosila (tananan) «t» larida».

Jomiy «Risolayi musiqiy»da pardalarni qanday belgilashni ham mufassal bayon qiladi. Musiqa pardalari haqida o`quvchilar kam ma`lumotga ega bo`lgani uchun Jomiy asaridagi shu o`rinning qisqa va sodda bayoni bunday: musiqiyshunoslar nag`malarini cholg`u torida bir-biriga qiyoslab o`n ettita nag`ma borligini aniqlaganlar.

Musiqa va she`riyat o`rtasidagi aloqadorlik, ularning hamohanglikda inson ruhiyatiga estetik ta`siri masalasi XV asr shoiri Ahmadiyning «Sozlar munozarasi» risolasida taxlil qilingan. Majoziy uslubda yozilgan bu asarda Tanbur, Ud, Chang, Qo`buz, Rubob va boshqa sozlar bir-birlari bilan munozara — bahs qiladilar. Tanbur o`z san`atini maqtaydi. Ud uni rad qiladi va o`zini ta`riflaydi. Nihoyat munozaraga Piri harobat, soqiy aralashib, sozlarga nasihat qiladi va ularning o`ziga xos fazilati borligini ta`kidlaydi. Shoir musiqiy sozlarning har birini alohida-alohida sifat va fazilatini ta`kidlash orqali majoziy tarzda maqtanchoq, xudbin, takabbur ba`zi san`at ahlini qoralaydi.

Respublikamizda bayramlarni tashkil etishga bo`lgan e`tibor judayam kuchaydi. Bayramlar madaniy tadbirlarning asosiy bo`laklaridan biri sifatida yurtimizning barcha xonadonlarigacha kirib bormoqda. Madaniyat muassasalari va san`at maskanlarida, umuman, san`at yoki madaniyat sohasiga tegishli bo`lmagan tashkilotlarda ham bayramlarni yuqori saviyada tashkil etishga katta e`tibor berilmoqda. Buning uchun albatta bayram o`tkazishning tashkiliy guruhi tuzilib, ijodiy va tashkiliy jarayonlar boshlanadi.

Bayramlar xalqning xursandchiligi, shodu xurramligini o`zida aks ettiruvchi tadbirlar turiga kiradi. Har bir xalqning tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib kelgan o`z bayramlari bo`ladi. Ularni o`tkazish va tashkil qilish usullari yildan-yilga o`zgarib, yangilanib, zamonaviylashib boraveradi. Bayramlar o`tkazilishi jihatidan sintetik shaklga ega bo`lib, uni tayyorlashda tarixiy shaxslar, xalq qahramonlarining timsollari ishtirokidagi sahna ko`rinishlar, teatrlashtirilgan lavhalar, fan, madaniyat, san`at arboblari bilan uchrashuvlar, kontsert dasturlari, spektakllar, dorboz va qiziqchilarning chiqishlari, sport o`yin va musobaqalari, turli amaliy, tasviriy san`at asarlari, shuningdek bolalar texnik to`garaklari ishtirokchilari tomonidan yasalgan texnik vositalarining ko`rgazmalari kabi ko`plab shakl va usullarini birlashtiradi.[5.9]

Bayramlar kishilar hayotidagi eng quvonchli, hissiyotli damlar, xushkayfiyat chog`lar, birdamlik, mehr-oqibat, kelajakka ishonch tuyg`ularini o`zida qamrab olgan buyuk bir ijodiy va tashkiliy jarayondir.

Bayramlar o`z-o`zidan bayram shakliga kelmaydi, uni tashkil etish kerak. Kishilar imkoniyatini hisobga olib, zamon talablaridan kelib chiqib, milliylik, urf-odat, an`analarga sodiq qolgan holda, mavzu va g`oya uyg`unligida tashkil etilgan bayram va tomoshalar yuqori darajada o`tkazilgan tadbirlardan hisoblanadi. Chunki insonlar bayramlarga madaniy hordiq chiqarish uchun, bo`sh vaqtini to`g`ri tashkil etish uchun, estetik zavqlanish, kayfiyatini ko`tarish va boshqa ijobiy hislatlarni jo qilish uchun keladi. Bu esa uning ertangi kundagi amalga oshiradigan ijobiy ishlariga qiziqishini yanada orttirishga, o`z mehnatidan zavq olishiga, mehnat unumdorligiga erishishiga, oilasi, Vatanni sevishga, ijtimoiy hayotga munosabatini yaxshilik tomonga o`zgartirishiga olib keladi.

Bayramlarni tashkil etishning asosiy maqsadi ham shunga qaratilgan.

Maydon tomoshalarida bayram rahbari va bosh rejissyor rahbarligida yuzdan ortiq turli toifa sahnalashtiruvchi ijodkorlar – ommaviy tomoshalar bosh rejissyorlari, bosh baletmeyster, badiiy lavhalar bosh baletmeysterlari, orkestrlar va ansambllar rahbarlari, muvofiqlashtiruvchi rejissyorlar, sahnalashtiruvchi rejissyorlar, shuningdek qator sahnalashtiruvchi baletmeysterlar, rassomlar,

suxandonlar, ovoz rejissyorlari, ovoz operatorlari, ijodiy-tashkiliy guruh, liboschilar, pardozlovchilar, texnik ta'minotchilar bayramni tayyorlash va o'tkazishdek sermashaqqat ishni amalga oshiradilar.[6.9]

Kuy, qo'shiqlar va musiqa barchamizning hayotimizga shunday singib ketganki, bayramlarni san'atning bu turisiz tasavvur qilish mumkin emas. Demak musiqa, uning ommaviy bayram va tomoshalarda to'tgan o'rnini va roli, bastakorlik ijodi haqida:

Bayram qatnashchilarini kiyintirish, mavzuga mos ravishda libos tanlash jarayoni ham bayram yoki tomoshada tomoshaviylikka erishishining muhim shartidir. Demak, liboslar va ulardan foydalanish to'g'risida fikr yuritimiz.

Mana shu yettita faoliyat (soha) zamonaviy bayramlar rejissurasi va uni to'g'ri tashkil etishning asosiy mezonidir. Zamonaviy bayramlarni tashkil etishda kishilarning ma'naviy ehtiyojini qondirish, zamon, davr talabiga mos yashash, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish kabi xislatlarni uning mazmuniga singdirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Ommaviy bayramlar madaniy tadbirlarning oliy ko'rinishi bo'lib, insoniyat tarixining rivojlanishi bilan takomillashib kelgan. Shuning uchun ham mazkur darsning asosiy qismi bayramlar mavzusiga qaratilgan.

Sharqning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariy "Bayram-xalqning shodlik va xursandchilik kunidir" [7.447], degan edi. Biror-bir muhim ijtimoiy voqea, sanani ko'pchilik bo'lib, ko'tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash bayram deb tushiniladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ahmedov F. "Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari". – T.: A'loqachi", 2008.
2. Qoraboev U. "O'zbek xalq bayramlari". – T. "Sharq" bosmasi aksionerlik kompaniyasi bosh redaksiyasi, 2002
3. H.Muhammad "Ssenariynavislik asoslari" – T.: "Fan va texnologiya" 2008.
4. Umarov M. "Estrada va ommaviy tamosholar tariyxi". – T.: "Yangi asr avlodi" 2009
5. O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar). O'zbekiston badiiy akademiyasi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti . T., Charq. 2001, 195-b.
6. Nemirov O. Prazdnichnyy gorod. –L., 1987. 9-b..
7. Maxmud Qoshg'ariy. "Devonu lug'otu-turk", 1 tom. – T.: "Fan", 1963 yil, 447
8. Abdumutalibovich, A. M. (2020). Methods of working with studies in piano lessons at the University. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(7), 49-55.
9. Abdumutalibovich, A. M. (2020). The art of musical culture in medieval period in central asia (V-XV centuries). *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(8), 48-51.
10. Abdumutalibovich, A. M. Activity Of Folklor-etnographical Groups And Learning The Preformance Programmes. *International Journal on Integrated Education*, 3(12), 535-537.
11. Abdumutalibovich, A. M. Musical life in the samanid period in the IX-X centuries and Uzbek music in the XI-XV centuries. *Gospodarka i Innowacje*. 22, 527-537
12. Abdumutalibovich, A. M. R. The study of the life and creativity of yunus rajabi and the rich heritage he left to the uzbek nation. *International Journal on Integrated Education*, 3(12), 40-43.
13. Abdumutalibovich, M. A. (2022). Exploring the work of george bizet in music education classes in higher education. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(03), 80-86.
14. Abdumutalibovich, M. A. (2022). The role of the system of authorities and the historical formation of shashmaqom in the teaching of music to students of higher education. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(02), 121-127